

TÜRK DÜNYASINDA DESTAN ve KÖROĞLU SEMPOZYUMU

**(INTERNATIONAL SYMPOSIUM OF EPIC AND
KÖROĞLU IN THE TURKIC WORLD)**

ULUSLARARASI SEMPOZYUM BİLDİRİLER KİTABI

Editörler:

Prof. Dr. A. Özgür GÜVENÇ

Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR

Arş. Gör. Aslıhan SÜMBÜLLÜ

Arş. Gör. Muhammet Nuri CEYLAN



Eser Adı:
ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASINDA DESTAN ve KÖROĞLU
SEMPOZYUMU BİLDİRİLER KİTABI

Editörler:
Prof. Dr. A. Özgür GÜVENÇ
Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR
Arş. Gör. Aslıhan SÜMBÜLLÜ
Arş. Gör. Muhammet Nuri CEYLAN

Yayınlar Yönetmeni:
Doç. Dr. Bünyamin AYDEMİR

Yayın Kurulu: Prof. Dr. Ahmet SARI, Prof. Dr. Ali UTKU, Prof. Dr. Bülent ÇAVUŞOĞLU,
Prof. Dr. Erdinç ŞIKTAR, Prof. Dr. Hakan Hadi KADIOĞLU,
Doç. Dr. Bünyamin AYDEMİR, Doç. Dr. Hasan Tahsin SÜMBÜLLÜ

Dizgi ve Tasarım: Abubekir KALE

Atatürk Üniversitesi Yayınları No: 1296

ISBN: 978-625-7086-52-3



Erişim Adresi: <https://ekitap.atauni.edu.tr>

Atatürk Üniversitesi Yayınevi Koordinatörlüğü

Sertifika No: 42021

Adres: Prof. Dr. Fuat Sezgin Kütüphanesi Okuma Salonları Binası Zemin Kat

Kampüs-Yakutiye/ ERZURUM

E-posta: atayayinevi@atauni.edu.tr

Telefon: 0442 231 62 80



Erzurum 2021 © Copyright Atatürk Üniversitesi Yayınevi

Bu kitapta yer alan tüm yazıların dil, bilim ve hukuk açısından sorumluluğu yazarlarına aittir. Eserin her hakkı anlaşmalı olarak Atatürk Üniversitesi Yayınevi Koordinatörlüğüne aittir. İzinsiz yayınlanamaz. Kaynak gösterilerek alıntı yapılabilir.

GO'RO'G'LÌ DOSTONLARIDA OT TA'RIFI

Abdumurad TILAVOV*

Özet

Köroğlu destanlarında at kahramanın daimi yoldaşı, en sıkıntılı anlarında yardımcısıdır. Bahşının sanatsal mahareti atı tasvir ederken ortaya çıkmaktadır.

Anahtar kelimeler: Göroğlu, at, tasvir, ozan, episot.

HORSE DEPICTION IN KOROĞLU EPICS

Abstract

In Göroğlu epics, the horse motif is the hero's constant companion and assistant in his most troubled moments. Bahşı (Ozan)'s artistic dexterity emerges when depicting the Horse.

Key words: Göroğlu, Horse, description, Bard, Episode.

Dostonlarda ot egarlash epizodining, ma'lum ma'noda tamomlovchi qismi sifatida keladigan doimiy o'rirlardan yana biri ot ta'rifi. Otining xatti-harakati va sadoqatidan, u tufayli erishilgan g'alabalardan zavqlangan qahramon (ba'zan sinchi. – A.T.) otni ta'riflay ketadi:

Jonim G'irot, molim G'irot,
Seni mingan topgay murod.
To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
Badanlarling qizday nozik.
O'mgaklarling filday yoziq,
Otim G'irot, jonom G'irot.

Yeming kishmish, to'rvang banot. (Go'ro'g'lining tug'ilishi, 1967:50)

Ayrim taddiqotchilar dostonlardagi "Ot ta'rifi" epizodiga asar va janr sifatida qaraydi. (Lipes R.S., 1984:228-229) "Ot ta'rifi"ning doston uchun ahamiyatli bo'lgan tomoni shundaki, bu epizodda qahramon otining sifatlari, belgilari, qilgan ishlari sanab o'tiladi, bu esa tinglovchingot haqidagi tasavvurini yanada boyitadi:

Yilqi ichida o'zi kelgan sinlidir,
Tovushqon tuyoqli morol bellidir.
Arosat kunida ajab xollidir,
Qimmataho ermish xonning G'iroti.
Minganlarning yetar maqsadi,
Qo'lting'ida to'rt yarim gaz qanoti.
Chu, desa o'zadi, osmonda qushdan,
Hech kamligi yo'qdir yo'rg'a yurishdan,
Umid qilar har shaharda buvishdan,
Asl tulpor emish bekning G'iroti.
Seni mingan beklar daryoday toshdi,
Bir kunlari eram boqqa yetishdi,
Eram bog'da devlaro bilan savashdi,

* Öğr. Gör.; Ali Şair Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Özbek Filolojisi Fakültesi
Taşkent/Ozbekistan, a.tilavov@mail.ru

Devlarni İslomning diniga qo'shdi,
...Bekning oti nazarkarda tulpor dir.
Qarchig'ay qush doim turar qiyoda,
Odamdan himmating, jonvor ziyoda,
Seni minib hech yurmadim piyoda,
Seni mingan doim yetgan murodga.
Dol-doling bor, doling bor,
Dol sag'ringda xoling bor.
Eplab bozor solganga,
Qirq ming qizlik puling bor.
G'o'noningda borgan joying Torkiston,
Do'noningda borgan joying Gurjiston,
Seni mingan mardga bollar ichdirning,
Qiz o'rnida doim pari quchdirning,
Poyga bo'lsa chavandoo'ni uchdirning.

("Malika ayyor"dan)

Ot ta'rifi turk xalq folklorida "turkular" yoki "go'zallamalar" deb ataladi. Shu go'zallamalardan biri:

Chambilbelga burar edim yo'lingni,
Oltinday yasattiray nahalingni.
Uch go'zalga o'rdirayin yolingni,
Olma ko'zli, qiz siyoqli Qirotim.
Nasling Duldul, asling Qirot
Seni minganga yor murod.
Tol bo'yningda bir juft qanot...
So'yla, ey Ko'ro'g'li, so'yla.
Qirotning madhini kuyla.
Dushmanla urishgan zamон,
Maydon qonli sel bo'ladi. (Ko'ro'g'lining maydonga chiqishi, 1990:18)

R.S.Lipes chuqr traditsiyaga ega va qadimdan mavjud bo'lgan "ot ta'rifi" ayni paytda tur mush sharoitida saqlanib qolganligini, masalan, Mo'g'ulistonda poygada g'olib chiqqan otga o'z davrining eng chuqr oti va egasining "bebaho xazinasi" sifatida "madhiya qo'shiq" aytilishini yozadi. (Lipes R.S., 1984:228-229)

Bizda hozir ham ot haqidagi turli termalar baxshilarimiz tomonidan yaratilmoqda va sevib kuylanmoqda.

Quyida Samarqand viloyati, Nurota nohiyasi, Ajrim qishlog'ida yashovchi Xushvaqt baxshining ijodiga mansub bo'lgan termani keltiramiz:

Bedov mingin sag'risini silatib,
Olti oy arpa berib tulatib.
Dushmandan o'chingni olar jilatib,
Har qistovda mazgilingga yetkazib.

"Ot ta'rifi"ning doston uchun ahamiyatlil bo'lgan yana bir tomoni bor. Bu epizodda ko'plab poetik metasfora, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash va boshqa tasviriy vositalar qo'llangan bo'ladi. Bu vositalar dostonning umumiy pafosiga ta'sir etadi, uni yuksaltiradi.

Jumladan, ot ta'riflanyotganda yoki safari arafasida "sag'risini toshib, yoli qulog'idan oshib, uchadigan qushday, quloplari qamishday, ko'zlar tarkashday, yulduzni ko'zlab taraqqos boylab turibdi" kabi, otning yugurish tezligini ifodalashda "Haqning yashiniday orqadi tulpor", "yashinday uchadi g'oyibning qushi", "ot boradi arillab, otgan o'qday sharillab" kabi, otni sifatlaganda asl arabi tulpor, morol belli, qiz belli, takaday hayvon, layliday tulpor, tovushqon tuyoqli tulpor kabi dostonni "bezab turuvchi"

TÜRK DÜNYASINDA DESTAN VE KÖROĞLU

badiiy tasvir vositalar ko'plab qo'llanadi. ("Ravshan" dostonida Oqqiz ta'riflanayotganda toyga o'xshatiladi: "Oq yuzin ko'o'rsang, oyday, hurkak-asov toyday, olg'ir-qarchig'ayday qiz". (Qarang: Ergash Jumanbulbul o'g'li. Ravshan. – Toshkent, 1971. – B. 127).

Albatta, bu badiiy tasvir vositalari ham shunchaki ishlatilmay, otning kuch-qudratini ifodalashda yordamchi **k o m p o n e n t** bo'lib xizmat qilish bilan birga dostonni o'qishli, yanada qiziqrarli chiqishini ta'minlovchi **d e t a l** vazifasini bajaradi. Bu badiiy tasvir vositalarining o'z o'mida va mukammal tarzda ishlatilishi, shubhasiz, xalq dostonchisining badiiy mahoratini namoyon etadi.

Otning ba'zi xatti-harakatlari voqelikdagi u yoki bu hodisa bilan qiyoslanadi, ot ta'rifi sirasida yengil humor bilan hayotdagи ayrim illatlarga ham ishorat etib o'tiladi, pirovardida kitobxon bu misralarni zavq bilan tinglaydi, o'qiydi, shuning bilan birga otning go'zal qiyofasi uning ko'z o'ngida yaqqolroq namoyon bo'ladi:

Dirka-dirka o'ynashing,
Yaylova yurgan qo'ziday.
Adirdan oshib borishing,
Tulkini ko'rgan toziday.
Kalla chayqab borishing,
Porani yegan qoziday. (Nuralining yutilishi, 1989:236)

Ota-bobolarimizning jahon madaniyati sahnasiga chiqishida ular yetishtirgan tengi yo'q, mashhur, hatto suvdan chiqqanligi va uchishiga ishonilganligi tulpor otlar ham sababchi bo'lган. Bu haqda chet ellik mustashriqlarning, sayyoohlarning e'tiroflari bor. Ot ta'rifi epizodini esa ana shu tarixiy va tabiiyki kishiga g'urur-iftixon baxsh etuvchi haqiqat va e'tiroflarning dostondagи badiiy ifodasi, desak yanglish bo'lmas. "Ot ta'rifi" go'yoki O'ZBEK degan xalqning ta'rif-tavsifiga o'xshab ketadi.

"Alpomish" dostonida Ko'kaldosh ko'sa sinchidan: "Qanday ekan o'zbakning oti?" deb so'raganida, u shunday javob beradi:

Yilqichinda o'zi kelgan sinlidir,
To'bishqon tuyeqli, marol bellidir,
Arosat kuninda ajab hollidir,
Qimmatbaho ekan o'zbekning oti.
Minganlarning Haqdan yetar maqsadi
Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti,
Asl tulpor ekan o'zbakning oti.
O'zi shunday kelgan ekan chovkar ko'k,
Quyrug'idan berisida kiri yo'q,
Qanday bo'lsa minganlarga ko'ngil to'q,
Men bilaman ildamlikda mini yo'q.
Vimtisa o'tadi osmonda qushdan,
Beliga yarashgan kark qubbi pushtan,
Hech kamlik bo'lmasa yo'rg'a yurishdan,
Umid qilma oy Barchinday buvishdan,
Asl tulpor ekan o'zbakning oti.
Buni mingan qo'ng'irotlarning bekzoti.
O'n ikki oy sen otingni boqtirsang,
Yo'l-yo'lakay yo'lga gulmix to'ktirsang,
Avaylab o'tadi o'zbekning oti.
Bedov minib, ot abzaling shaylasang,
Poyga qilib ko'p shumlikni o'ylasang,
Poyganing boshida tortib boylasang,
O'n besh kun ilgari berman haydasang,
Bo'shsalsa o'zadi o'zbakning oti.

(122-123)

"Joxun Maston" dostonida Avaz G'irotg'a murojaat qilar ekan:
Chambilimning chirog'i
O'zbeginning yuragi, (Nurali, Dostonlar, 1989:78.) –
deydi.

Ot ta'rifi"ning go'zal namunalarini dostonlarimizdag'i nasriy parchalarda ham uchratish mumkin. Biroq bu o'rinda baxshi nasrdagi ichki va ketma-ket qosiya (saj')larni shunday ustalik bilan qo'llaydiki, jumlalar juda ravon, o'ynoqi va she'riy parchalar kabi jaranglaydi: "Bu ot Chambilni Chambil qilgan, qirq yigitni keltirgan, Ko'yi Qosdan pari oldirgan, poyga bo'lsa baridan o'zgan, qqahri kelsa tog'larni buzgan, mingan murodiga yetgan, irg'isa Amudan o'tgan, jabr tushganda uchgan, egasi asir bo'lsa xabarin Chambilga bergen". (Joxun Maston, 1989:69)

Qahramon otining og'ir vaziyatdan chiqishi, yo'ldagi to'siqlarni yengib o'tishi uchun bir necha vositalar bor. Zindonda yotgan Alpomish otining bandiligidini, azobda yotganligini Tavkaoy xabar bergach, Alpomish:

U jonivor meni o'ldi bilgandir,
Mening uchun aza tutib turgandir.

Hech kim bilmas aza tutgan hayvondi, –

deydi va Tavkaoya isiriq berib, uni Boychibor yotgan joyda tutatishini so'raydi. Boychibor bandilikdan ozod bo'lishiga esa isiriq hidi vosita bo'ladi.

Dostonlarimizda ot anjomlariniring faqatgina satrni to'ldirish uchungina tilga olinmasligini, ularga ham ma'lum "yuklama yuklanganligini" yana bir bor ta'kidlagan holda aytish mumkinki, otdagi noyob qobiliyatlarni ishga soluvchi, "simday botuvchi", "achchiq" qamchi ana shunday vositalardan biridir. Boychiborning tzrt oyog'ida gulmix qoqligan holda poygaga birinchi bo'lib yetib kelishiga Barchinooning "Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti.." deya boshlanuvchi monologi ham sabab bo'ladi. "Nuralining yoshligi" dostonida ham bandi G'irotg'a Nuralining:

Jonivor, silkinib tursang bo'lmayma,
Yig'laguncha o'ynab tursang bo'lmayma.
Mening uchun xafa bo'lma jonivor,
Mingta zanjir bo'lsa uzsang bo'lmayma, –

Degan so'zları ta'sir qiladi va zanjirlarni uzib tashlaydi. Inchinun, ot ta'rifi og'ir va muhim vazifani bajarish oldida turgan otga kuch bag'ishlaydi va to'siqni yengib o'tishga yordam beradi. "Malla savdogar" dostonida Avaz G'irotni "Ka'bamning tulpori", "qiblagohimning bodpoyi" deya ta'riflagach, ot "to'rt oyog'ini bavriga bukib, kaptarday dirillab" daryordan o'tadi.

Kuzatishlarimiz davomida, keksa chavandozlarning guvohlik berishicha, zotdor va dongdor otlar haqiqatan gapga tushunadi, ba'zan sharoit taqozosi bilan egasining otga yolvorishi, otni maqtashi tufayli otda g'ayritabiyy kuch keladi va boshqa paytda uddasidan chiqolmagan ishlarni hayratomuz tarzda bajaradi.

Demak, dostonlarimizdag'i "Ot ta'rifi" lavhasining biz yuqorida ta'kidlaganimiz funksiyasi o'zining hayotiy va mantiqiy asosiga ega ekan.

Turkiy xalqlar qahramonlik eposlari, jumladan, o'zbek dostonlarida xarakterli lavhaga duch kelamiz. Qahramon otining oddiy otlardan emasligini bilgan va haqiqatni oshkor etgan – otni ta'riflagan sinchi og'ir fojeaga uchraydi – ko'zi o'yiladi. Shundan so'ng o'ta ko'rimsiz va cho'bir toy ko'r sinching8 maslahat va yo'l-yo'rqliklari asosida tarbiyalanadi. Go'ro'g'li dostonining turk versiyasida T u r k i s t o n d a n (ta'kid bizdan. – A.T.) kelgan Dali Yusuf, Bolu yurtining sultoniga ko'rimsiz toy keltirgani (bu toy bo'lajak Qirot edi) va uni maqtagini uchun o'tda qizdirilgan six tortilib ko'zları ko'r qilinadi. Asli ismi Ali bo'lgan Yusufning o'g'li shundan so'ng ko'rning o'g'li – Ko'ro'g'li nomini oladi. (Ko'ro'g'lining maydonga chiqishi, 1990:7-8)

Ot obrazining badiiyligini ta'minlovchi ot egarlash, ot ta'rifi epizodlari, shuningdek dostondagi ba'zi o'rinalarda ot obraziga xos yana bir muhim jihat ko'zga tashlanadi – jangovar ot pirlar va parilar bilan bog'lanadi, "mashhur sinching farzandi Go'ro'g'lining o'z qo'lida maxsus tarbiya natijasida yetishgan

G'irot chiltanlarning duosi bilan kamolot kasb etganday tasvirlanishi ham tez-tez uchrab turadi" (H.Zarifov).

Qayda borsang, aytgan so'zing dur bo'lsin,
Tutishsang dushmanidan qo'ling zo'r bo'lsin,
Bolam seni bir xudoga topshirdim.
Elu-xalqni aytganimga ko'ndirdim,
Chulon berib elu yurtni to'ydirdim.
Chiltan bergen G'irko'kimiga mindirdim,
Borgil bolam, seni Haqqa topshirdim.

("Og'a Yunusning olib qochilishi")

Ot egarlanar ekan, chiltanlar yodga olinadi:

Qarang endi, bek Soqi,
G'ir jilovin ushladi.
Ustdagi dovrini
Yalang'ochlab tashladi.
Odamday oqil dol G'irot
Hech qilmadi harbani.
Doim yodiga oldi,
Qirq chilton arvoхini. (Nuralining yutilishi, 1989:253)

Dostonlarimizda ot tarbiysi bilan shug'ullanuvchi sayis – Soqibulbulning ham avliyolardan ta'lif olganligi aytildi: "Soqibulbul Go'ro'g'lining G'irotiga qarar edi. Lekin Soqibulbul Go'ro'g'liga boshchi edi, u Chiltan tarbiyasini ko'rgan edi". (Mashriq, 1988:211; Yana qarang: Turdimov Sh. Soqibulbul // Sog'lom avlod uchun. – 1996. – № 2)

Tasavvuf ta'lomitidan ma'lumki, chiltan-qirq pirlar, Ollohnning do'stlari, yaxni avliyolarga berilgan nomdir. Yer yuzidagi ezgu ishlar, ba'zan balo-qazolarning daf'i, zalolatdagi ayrim insonlarning islohi ana shu xos bandalarga bog'lanadi.

Xullas, xalqimiz orasida chiltan-pirlarga nisbatan katta hurmat, ehtirom mavjud. Binobarin, qahramonning eng sodiq yordamechisi otni ham pirlar madadiga bog'lash, otga ilohiy sharbat-sharobantahurning ichirilishi dostonchilik an'anasisiga zid hodisa emas.

Qulq solmay dushmanlarning zoriga,
G'animni qo'yamading yo'qu boriga.
Yetib bording qirq chiltanning g'origa,
Suv o'rниga sharbat yutgan bedovsan. (Qunduz bilan Yulduz, 1975:236)

Hadislarda avliyolarga qarshi kin, adovatning yomon oqibatlarga olib kelishi ta'kidlanadi.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisi qudsiyda shunday deyiladi:

"Kim menga yaqin bo'lgan bandamga (valiyga) adovat qilsa, dushmanlik qilsa, unga qarshi urush e'lon qilaman". (Islom nuri, 1993:20 fevr)

Chunonchi, Alloh taolo tomonidan chilton-pirlar vositasida **b e r i l g a n** otga ham nazokat, muloyimlik bilan muomala qilish lozim. Shuning uchun ham otga bekorga qattiq jabr qilinmaydi:

Yomonlarning qilgan ishi minnatdir,
Ostingdagи Chiltan bergen G'irotidir.
Qahranganib, bolam, urgувчи bo'lma!
("Og'a Yunusning olib qochilishi" dostonidan)

Bunday "nazarkarda ot" egasining esa safar yo jang asnosida pirlarni yodga olish tabijyidir:

Komil pirlarni yod etib,
Ot qo'ydi dushman ustiga.
Avazxon maydonda tanho savashdi,
G'ayro dushmanning aqli shoshdi.

(“Malika ayyor”dan)

“Avazxon... G’irotning qoshiga keldi, yakka jilovni yechib oldi. G’irotni uch aylanib, tuyog’iga bosh urib, G’irotning manglayidan uch martaba tavof qilib, avval xudo, duyum piru meshvozlarni yod qilib, yo pirim deb, uzangiga oyoq qo'yib osilib, otning beliga rost bo'lib mindi.

Ochilib bog'ning guliga,

Piri xabardor holiga...”(Malla savdogar,1988:313)

Ezgu maqsad yo'lida uzoq safarga otlanayotgan qahramon uchun pirlarning bo'lishi katta imkoniyat, ham baxt:

Otga mindim avliyolar bor uchun,

Belimni boyladim nomus-or uchun.

Barakalla falakning gardishiga,

Eldin elga oshdim sanam yor uchun.

Bunga muqobil o'larqo pirlar ham ularni eslaganlarining yordamiga hozir bo'lishadi.

Masalan, o'n ikki yoshli Avazxonga piri shunday nasihat qiladi: “Ey Avazxon, olis mamlakatga yurish qilsang, g'anim shaharga niyat qilsang, yomon-nochor ishga xiyonat ko'zingni solsan, bizni pirim, deb yod aylamagaysan. Agar halollik bilan ketsang, yongan olovning ichiga tushsang ham, bizni yodingga olsang, biz Xudodan murodingni tilab, o'limdan qutqaramiz”. (“Malla savdogar”)

Jangovar ot va egasining g'alabasiga pirlar sabab bo'lganligi, hatto raqib tomonidan ham tan olinadi.

“Nuralining yutilishi” dostonida “dol” G’irot:

Odatini boshlaydi,

Shoxdorga o'zin tashlaydi.

Og'zin ochib jonivor

Shoxdorning yelkasini tishlaydi...

Qarang, endi Shoxdor deb

Odamday dono G’irotdan

Ko'rgiligin ko'radi. (Nuralining yutilishi, 1988:291-292)

Bu kurashda mag'lub bo'lib, tavba qilgan Shoxdor dev Avazga: “Sening haqiqatdan ham pirlaring zo'r ekan, bo'lmasa, yer yuzida menday zo'r dev yo'q edi” deydi. Ko'rinyaptiki, bu o'rinda ham otdagi jangovarlik, kuchlilik, aqlilik kabi xislatlar pirlarga bog'lanmoqda.

Pirlar, zarur bo'lganda qahramon otini qirchang'i otga aylantirishga ham vosita bo'ladilar – ot orqali ulardag'i karomatlar zohir bo'ladi.

“Malla savdogar” dostonida “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarda deyarli uchramaydigan lavha bor. Avazxon bir siqim tuproqqo pirlar o'rgatgan duoni uch qaytarib dam solib, G’irotning ustiga sochadi. Natijada “oy qomatli, bosgan iziga qo'shganot uylar tikilgan, tuyog’idan otgan tuprog'i bir tanop yerga yetgan, to'rt oyog'in yerdan uzib shamolday sharillagan, kaptarday dirillab uchgan, nazari qirq gaz bo'lib daryodan irg'ib o'tgan” G’irot juda ko'rimsiz otga aylanadi. Dostonchining mahorati shundaki, G’irotning shu holatini tasvirlashda ham juda xarakterli, tinglevchini jalb qiladigan, original badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi: “G’irot iyig'ini hakka teshgan, bosh-orqasi sallali kalladay shishgan, yolini shayton eshgan, u kuniga ham qo'ymaydi, necha juvozgarlar olib borib juvozga qo'shgan, ola qopdan doviri, yigirmata yag'iri, chini bilan yugursa, pishakday yo'q shobiri bir otga aylandi”. (Malla savdogar,1988:345)

Shuni ta'kidlash joizki, otdagi qobiliyatlarning pirlarga bog'lanishi bu obrazning salohiyatiga hech qanday putur yetkazmaydi. Ot, asosan o'zining hayotiy, real xislatlari bilan o'quvchi tasavvurida gavdalananadi. Binobarin, yuqorida eslatib o'tganimizdek, misifik qanot otda istalgan o'rinda paydo bo'limganidek, avliyolar ham ot eng og 'ir, chorasiz vaziyatga tushib qolganda yordamga yetib kelishadi. Chunonchi, “oyog’idan o'rab – kerib bog'langan”, tuyog’iga gulmix va pichoq urilgan, qalmoqlar qilgan zulmdan “chingirib (chinqirib) kishnagan, yotib bo'zlagan” Boychiborga pirning yordamga kelishi ham jonli, ham tabiiy chiqqan.



TÜRK DÜNYASINDA DESTAN VE KÖROĞLU

Chunonchi, "Alpomish" dostonining 1992 yildagi nashrida (Alpomish, 1992:137-139) juda xarakterli lavhaga duch kelamiz. Boboxon tog'ida Boychibor bilan "boylovli" qolgan Qorajon avliyolardan yordam istaydi:

Haq deb chiqar g'amli qulning ovozi,
Otingdan aylanay haqiqat qozi.
Sadqang bo'lay, Xo'ja Hofiz Sheroziy,
Gunohkor bandangman, Rahmon, bo'l rozi.
Umid qip yig'ladim Hazrati Nurdan,
G'am tortgan lochinni qutqargin to'rdan.

Shu lavha davomida Alpomishning Rajabxo'ja ismli shayxga murid tushganligi – "qo'l bergan"ligi aytildi:

Bu so'zlarni aytib yig'lar Qorajon,
Boychiborman bunda qolib bul zamon.
Armonman boylangan Boychibor edi.
Bek Alpomish o'z yurtingda qo'l bergan
Rajabxo'ja degan piri bor edi.

Boychibor va Qorajon og'ir ahvolda yotgan ana shunday bir paytda Rajabxo'ja pirning bir karomati zohir bo'ladi – pir Qorajonni, Qorajon esa Boychiborni bandidan xolos etadi. Hodi Zarifov ta'kidlaganlaridek, otdagi kuch-qudrat pirlarning madadiga bog'lanadi:

Falak titrar Qorajon nolishiga,
Banda ko'nar tangri qilgan ishiga.
Boboxonda yig'lab edi Qorajon,
Rajabxo'ja piri yetdi qoshiga.
Karomatman kelib xabar oladi,
Qorajonning qo'lin chechib ko'radi,
Qorajonni pir tarbiyat qiladi.
Qorajonbek bul o'rnidan turadi,
Kim chechganin o'zi bilmay qoladi.

(O'sha joyda, "Alpomish" dostonining Berdi baxshi variantida oyog'iga to'rt pichoq qoqlib bandi qilingan Boychiborga pir bevosita yordam beradi: "Mamarajab degan Alpomishning qo'l bergan piri bor edi. Shul yetib keldi. Otning oyog'idan sixini tortib oldi, Qorajonning qo'l-oyog'ini yechib yubordi". Qarang: Alpomish. Doston. Aytuvchi Berdi baxshi. Nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzaev. – Toshkent: Fan, 1969. – B. 36-37.)

Qorajon otning oyog'ini bo'shatgach, pirning ruhunati otning sag'risini silaydi, qalmoqlarning solgan sovuni ham yerga tushadi. Ana shu ruhunat otning to'shida turib Qorajonga:

"Dam bu damdir o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema..."

deya dalda beradi.

"Alpomish"ning Fozil Yo'ldosh variantidagi boshqa nashrlarida esa, o'quvchiga ot aytayotganday taassurot qoldiradi. Chunki, xuddi shu nashrlardan "Eshonning ruhunati Qorajonga ko'rinnmaydi, otning to'shida turib Qorajonga bir so'zni aytди. Qorajon xayolida "Menga Boychibor gapirayapti", deb turdi. Bul eshonning ruhunatining "aytayotgan so'zi" jumlalari olib tashlangan va "Otning... aytayotgan so'zi..." tarzda qisqartirilgan.

Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan lavhadagi Qorajonning pirlardan yordam so'rashi – avliyolarning fayz-barokotidan, himmatidan foydalanish, Allohning xos bandalarining madadini Allohdan istash, pirovardida yana Allohning o'zidan yordam so'rashdir. Soddarоq ifodalaydigan bo'lsak bu – kasal bo'lganda Allohdan shifo istab, doktorga borishga o'xshaydi. Ya'niki, Alloh dardimizga shifoni doktor yoxud dori vositasida berishligiga ishonamiz, umid etamiz. Suvga cho'kayotib odamlarni

ULUSLARARASI SEMPOZYUM BİLDİRİLER KİTABI

yordamga chaqirgan odam ham kim yoki nimadir sabab bo'lib omon qolishi mumkin. Binobarin, Qorajon pirlarni yordamga chaqirishdan oldin:

“Avvali Oblodan (Allohdan – A.T.), duyumi pirdan,
Miskin umid qilar Aliday sherdan”,

deyishini unutmadi.

Xulosa qilib aytganda dostonlarimizdagi ot ta'rifi lavhasi ajdodlarimizning otga bo'lgan munosabati, sevgisining badiiy ifodasidir. Bu lavha har bir baxshida o'ziga xos uslubda namoyon bo'ladi va bu ijro uning badiiy mahoratini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Alpomish / Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li / Nashrga tayyorlovchi T.Mirzaev. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 336 b.
2. Alpomish / Aytuvchi Berdi baxshi. – Toshkent: Fan, 1969. – 96 b.
3. Go'ro'g'lining tug'ilishi / Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'lkan / Nashrga tayyorlovchi M.Murodov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1967. – 328 b.
4. Islom nuri. – Toshkent, 1993. – 20 fevr.
5. Ko'ro'g'lining maydonga chiqishi Doston. Noshir Yashar Kamol. – İstanbul: Ishik, 1990. – 208 b.
6. Lipes R.S. Obrazi batira i yego konya v tyurko-mongolskom epose. – M.: Nauka, 1984. – 263 s.
7. Mashriqq. Doston / Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 72 b.
8. Malla savdogar // Nurali. Doston, aytuvchi: Jo'ra Eshmirza o'g'li. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. – 83 b.
9. Nuralining yutilishi. Doston / Aytuvchi Bo'ri baxshi Ahmedov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. – 76 b.
10. Ravshan. Doston / Ayotuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li / Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif. – Toshkent: Fan, 1965. – 216 b.
11. Qunduz bilan Yulduz. Doston. – Toshkent: Fan, 1963. – 276 b

